

Narsalarning asl mohiyatini bilishga olib boradigan
yo'llar – hissiy anglash, rost xabar va aqlidir.

Imom Moturidiy

MOTURIDIYLIK



The Maturidiyya - الماتريدية - Матүридизм



MOTURIDIYLIK



The Maturidiyya - الماتريدية - Матүридизм



ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

Музаффар КОМИЛОВ – тарих фанлари номзоди, доцент

Шайх Нуриддин ХОЛИҚНАЗАР – Ўзбекистон мусулмонлари идораси раиси, муфтий

Уйғун ҒАФУРОВ – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Шоазим МИНОВАРОВ – Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази директори

Давронбек МАХСУДОВ – тарих фанлари доктори, профессор

Зоҳиджон ИСЛОМОВ – филология фанлари доктори, профессор

Аҳаджон ҲАСАНОВ – тарих фанлари доктори, профессор

Шовосил ЗИЁДОВ – тарих фанлари доктори, доцент

Жамолiddин КАРИМОВ – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Аҳмад Саъд ДАМАНҲУРИЙ (أحمد سعد الدمنهوري) – илоҳиёт фанлари доктори

Маҳмуд Эрол ҚИЛИЧ (Mahmud Erol KILIÇ) – доктор, профессор, IRCICA Бош директори

Назир Муҳаммад АЙЁД (نظير محمد عياد) – илоҳиёт фанлари доктори, Ал-Азҳар мажмуаси Ислом тадқиқотлари академияси Бош котиби

Режеп ТУЗЖУ (Recep Tuzcu) – илоҳиёт фанлари доктори, профессор, Салжук университети ҳузуридаги Имом Мотуридий тадқиқот маркази директори

Аширбек МУМИНОВ – тарих фанлари доктори, профессор, IRCICA Бош директорининг дастурлар бўйича маслаҳатчиси

Камалуддин Нурдин МАРЖУНИ (Kamaluddin Nurdin Marjuni) – илоҳиёт фанлари доктори, Малайзия ислом фанлари университети кафедра мудири

Дониёр МУРАТОВ – тарих фанлари номзоди, доцент

Одил ЭРНАЗАРОВ – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

*Ўзбекистон Республикаси Дин ишлари
бўйича қўмитасининг 2023 йил 23 ноябрдаги
04-07/8931-сонли хулосаси асосида тайёрланди.*



Муассис:

**ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ
АКАДЕМИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ
ИМОМ МОТУРИДИЙ ХАЛҚАРО
ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИ**

Бош муҳаррир:

Жамолiddин Каримов,
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Муҳаррир ўринбосари:

Зафар Фаҳриддинов,
*Исломишунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори*

Саҳифаловчи:

Зарифжон Арслонов

Дизайнер:

Зарифжон Ғуломов

«Мотуридийлик» журнали
Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация
комиссиясининг 2021 йил 30 декабрдаги
310/10-сон қарори билан диссертация асосий илмий
натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий
нашрлар рўйхатига киритилган.

Журнал 2021 йил 12 декабрда Ўзбекистон
Республикаси Президенти Администрацияси
ҳузуридаги Ахборот ва оммавий
коммуникациялар агентлиги томонидан
№1139 рақами билан рўйхатга олинган.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳар, Шайхонтоҳур тумани,
Абдулла Қодирий кўчаси, 11-уй.

E-mail: maturidijournal.uz

Web-sahifa: info@moturidiy.uz

Телефонлар: (+99871) 244-35-21,
(+99871) 244-35-47

МУНДАРИЖА

ИСЛОМШУНОСЛИК

Zohidjon Islamov.

«Муқаддамату-л-адаб» арабча сўзлигининг матний таҳлили..... 5

Ramil Adygamov.

Междисциплинарные подходы в исследованиях истории богословия..... 13

Zafar Fakhriddinov.

«Вужух ва назоир» илмида ижод қилган олимлар ва унга оид асарлар таҳлили 23

Jurabek Chutmatov.

Ҳаким Термизий тафсирининг илк наشري 31

Ahmadkhan Alimov.

Абул Лайс тафсири манбалари ва муфассирнинг услублари..... 42

ИСЛОМ ҲУҚУҚИ

Azat Sarsenbaev, Nurulloh Turambetov.

Бурҳониддин Марғинонийнинг «Ҳидоя» асарида Қуръондан ҳуқуқий манба сифатида фойдаланиш услуби 51

Muhammadnur Murodkhanov, Khaydarali Yunusov.

Imom Saraxsiy – xalqaro huquqshunos olim..... 59

ДИНШУНОСЛИК

Nigora Yusupova.

Ўзбекистонда давлат қурилиши дунёвийлик принципларига асосланишининг ҳуқуқий асослари 65

Odiljon Ernazarov.

Shamsuddin Samarqandiyning xristianlik haqidagi qarashlari 74

Jurabek Sodikov.

«Ta'vilot ahl as-sunna»da keltirilgan noislomiy din va e'tiqodlarga oid ma'lumotlar tahlili 80

Shahzoda Abduraimova.

Distribution of religious media contents on websites in Germany 90

Behzodbek Soipov.

Жамият ижтимоий-сиёсий барқарорлигини таъминлашда бағрикенглик тамойилининг аҳамияти..... 96

ИСЛОМ ТАРИХИ

Sanabar Djurayeva.

Toshkent viloyati ziyoratgohlarining tasnifi 103

Muhabbatkhan Agzamova.

«Тарих ар-русул ва-л-мулук» асарининг тарихий жараёнларни тадрижий ёритишдаги аҳамияти 108

Lola Azimova.

Марказий Осиё цивилизацияси ривожда илмий масканларнинг ўрни..... 115

Oybek Sotvoldiyev.

«Ат-Табоқот ал-кубро» асари – сийрат ва тарожимга оид манба сифатида 122

Zarifjon Arslonov.

Alixonto‘ra Sog‘uniy asarlarining ilmiy tasnifi va ularda ko‘tarilgan
mavzular tahlili 130

ИСЛОМ МАНБАШУНОСЛИГИ

Doniyor Muratov.

Арбаин жанри хусусида 139

Akmalkhan Akmalkhanov.

«Miftoh al-ulum» asarida bir harfdan iborat yordamchi so‘zlar talqini 148

Dilfuza Sagdullaeva.

Рабғузий ижодида оятларни қўллашнинг услубий хусусиятлари 156

Feruza Nizamova.

Dehlaviy ijodida badiiyat an‘analari 163

Bahodirjon Azamov.

Ҳақим Термизий «ал-Амсол мин ал-Китоб вас-сунна» асарининг
манбашунослик таҳлили 171

Feruza A. NIZAMOVA,

*DSc, Associate Professor of the Department of
Classical Oriental Literature and Source Studies,
International Islamic Academy of Uzbekistan.
A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan.
E-mail: feruzanizom1975@gmail.com*

DOI: 10.47980/MOTURIDIY/2023/4/21

DEHLAVIY IJODIDA BADIYYAT AN'ANALARI

POETIC TRADITIONS IN THE WORK OF KHUSRAV DIHLAWI

ПОЭТИЧЕСКИЕ ТРАДИЦИИ В ТВОРЧЕСТВЕ ХОСРОВА ДЕХЛЕВИ

KIRISH

Respublikamizda nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy sohada, balki madaniy sohada ham rivojlanish sur'atining tezlashishiga qulay sharoitlar yaratilmoqda. Ma'naviy barkamollikning yuzaga kelishida adabiy merosning o'rni katta ekani shubhasiz. Jamiyatimizda yuz berayotgan o'zgarishlar tariximizni, merosimizni chuqurroq his qilishga undaydi.

Amir Xusrav ijodi xalaflari uchun badiiyat bulog'idek gap. Bu buloqni to'la namoyon qila oladigan she'rlari – shoirning lirikasi, albatta. Bunda u adabiy merosdagi butun badiiyat an'analari puxta o'zlashtirgani holda ularni takomillashtirdi va yangidan-yangi unutilmas asarlar yaratdi (Rustamiy S., 2016). O'zi «No'h sipehr» asaridagi faxriyalaridan birida aytganidek, «asarlarining serqirraligi va mukammalligi jihatdan» Sa'diy Sheroziydan ko'ra ko'proq shuhrat topdi (Aliev G.Yu., 1968:57).

ASOSIY QISM

Shoirning ruboiylarida muhabbat tuyg'usini ifodalashdagi uning uslubi, u qo'llagan tasviriy vositalarning mutlaqo o'ziga xosligi kuzatiladi. Poetik tasvirlarning rang-barangligi, badiiy ifoda uchun so'z tanlash mahorati (Rustamiy S:2014) kishini hayratga soladi. Chunonchi, oshiq bir yerda o'zining alamdiya nidolaridan, sog'inch-iztiroblari ila kechgan kunlaridan so'zlaydi:

ای از غم تو جان و دلی بنده خراب
تا به هر خیال تو بود منزل خواب
بی تو دل و چشم من پر از آتش و آب
در بیخ مژه خیمه زد اشکم زر حباب.

(«Kulliyoti Amiri Xusrav» – O'zR FASHI, 178 inv. raqamli qo'lyozma:389).

Mazmuni:

Ey, g'amingda jon-u dilim xarob bo'lgan (yor),
Sensiz dil-u ko'zim otash bilan suvda qoldi.

Sening turli xayoling uyquga manzil,

Ko'z yoshim kiprigim ostida chodir qurgan zar ko'pik.

Oshiqning diliga «otash»ni, ko'ziga munosib «ob» (yoshni) muvofiq keladigan so'zlardan tanlab olgan. Uxlash joyi uchun «yosh tomchisidan gumbaz» ham nihoyatda original tanlangan. Shuni ham aytish kerakki, bunday ruboiylarni bemalol ham so'fiyona, ham majoziy (voqelik) nuqtayi nazaridan talqin qilish mumkin. Unda oshiqning hijrondagi holati qisqa, ammo to'la qamrab olingandek tasavvur uyg'otadi. Quyida bir necha san'at orqali ruboiylarni tahlil qilib ko'ramiz:

Irsoli masal – maqol keltirish san'ati. Amir Xusrav ruboiylarida, maqollarni o'z holida keltirish bilan bir qatorda, ko'p hollarda, ularning o'zgartirib va o'zlashtirib yuborilgan shakllarini ham uchratamiz:

نسازکی چون از لب خندان ریزد
در قالب لطف صورت جان ریزد
گر فی المثل از نمک نمکدان ریزد
همتای تو ناید اگر از آب حیات

(«Devoni Xusrav» – O'zR FASHI, 965 inv. raqamli qo'lyozma:408).

Mazmuni:

«Tuzliqni tuzdan quyib yasaydilar» degan maqol bor,

Nayning muloyim (sadosi) xandon labdan quyilgan kabi.

Senga teng kelolmas, garchi obi hayotdan –
Lutfning qolipiga solib, jon shaklin quysa.

Bu bizning maqollar orasida «qozonda bori, cho'michga chiqadi» degan xalq durdonasi bilan muvofiq keladi. Ammo bu ifoda vositasi, ko'pincha, «qozon»dagi «narsa»dan ko'ngil to'lmagan holda, qanoat izhori sifatida ishlatilib keladi. Bu yerda esa gap, aksincha, yoqimli joydan taralgan yoqimli sado haqida bormoqda.

Аннотация. Bu maqolada Amir Xusrav Dehlaviyning ruboiy janridagi ulkan merosi o'rganishga harakat qilingan. Maqolaning maqsadi shoir asarlaridagi mafkuraviy va badiiy usulni o'rganish, shoirning ruboiy janridagi mahoratini aniqlash, shuningdek uning ruboiylarini tahlil qilish orqali fors-tojik adabiyoti tarixida uning asarlari o'rini aniqlashdan iboratdir. U islom olamidagi fors va tojik tillarida ijod qiluvchi shoirlarning asarlariga kuchli ta'sir ko'rsatgani ilmiy haqiqatdir. Shoirning asarlariga, shu jumladan uning ruboiylariga qiziqish shoirning o'rta asrlarda mustaqil maktab yarata olganligi bilan bog'liq. Amir Xusrav Dehlaviy o'z davrida fors adabiyotining barcha janrlarida ijod qilgan. U ruboiy yozish sohasida kamdan-kam uchraydigan faylasufdir. Shoirning barcha asarlari Xudo, koinot, insoniyat, hayot, yer, sevgi kabi falsafiy fikrlar bilan to'raligi va asarlaridagi so'zlarning mukammal tanlangani tufayli noyob merosga aylandi. Bu doiradagi ulkan yutuqlar shoirning ruboiylariga ham tegishlidir. Uning ruboiylarida she'riyatning har qaysi sohasiga tegishli romantik mavzu asosiy omil hisoblansa-da, ijtimoiy va falsafiy fikr doirasida ham keng tarqaldi. U har qanday mavzuni o'zining she'rlari orqali yetkazib bera oladigan iste'dod sohibligi bilan insonlarni hayratda qoldiradi. Maqoladagi aytib o'tilgan fikrlar shoir yashab, ijod etgan adabiy muhit va uning asarlarining Sharq adabiyoti rivojida o'rni va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Fors adabiyoti, tasavvuf, ruboiy, badiiy timsol, nazm, shoir, janr, tahlil, asar, til.

Abstract. In the article, Amir Khusrav Dihlavi's huge heritage in the ruba'i genre is tried to study briefly. The aim of the article is to study the ideological and artistic system of the poet's works, to identify the poet's skills in the ruba'i genre, and also to define the role of his writings in the history of Persian-Tajik literature through analyzing his ruba'is. It is a scientific fact that he has profoundly influenced the other poets' works in the Islamic region who wrote in Persian and Turkic afterwards. The interest in the poet's writings, including his ruba'is, is related to the fact that the poet could found an independent school in the Middle Ages.

Amir Khusrav wrote in all the genres of Persian literature in his time. He is also a rarely found philosopher in the field of ruba'i writing. The poet's entire works are full of philosophical thoughts about God, the universe, the human being, the life, the earth, the love, and has become a unique heritage due to the perfect choice of words in his works. The great accomplishments in this sphere also belong to the poet's ruba'is. Although the subject of romance, which is characteristic of all types of poetry, is a dominant factor of his ruba'is, the area of social and philosophical thought is also extensive. He impresses people by the fact that he is a master of talent, who is capable of delivering any theme in his poems. It is evident that the ideas expressed in the article are aimed at determining the literary environment in which the poet lived and worked, the importance and the role of his works in the development of Oriental Literature.

Keywords: Persian literature, Sufism, rubai, image, poetry, poet, genre, analysis, work, language.

Аннотация. В статье предпринята попытка кратко изучить огромное наследие Амира Хусрава Дехлави в жанре рубаи. Целью статьи является изучение идейно-художественной системы произведений поэта, выявление мастерства поэта в жанре рубаи, а также определение роли его произведений в истории персидско-таджикской литературы посредством анализа его рубаи. Это научный факт, что он оказал глубокое влияние на произведения других поэтов Исламского региона, которые впоследствии писали на персидском и тюркском языках. Интерес к творчеству поэта, в том числе к его рубаи, связан с тем, что поэт может создать самостоятельную школу в Средние века.

Амир Хусрав писал во всех жанрах персидской литературы своего времени. Он также редко встречающийся философ в области письма рубаи. Все произведения поэта полны философским мыслям о Боге, Вселенной, человеке, жизни, земле, любви и стали уникальным наследием благодаря совершенному выбору слов в его произведениях. Больших достижений в этой сфере также принадлежат поэту рубаи. Хотя тема, характерная для всех видов поэзии, романтика - является доминирующим фактором его творчества, а область социально-философской мысли также обширна. Он поражает людей тем, что является мастером таланта, который своими стихами способен передать любую тему. Очевидно, что идеи, выраженные в статье, направлены на определение литературной среды, в которой жил и работал поэт, их значения для творчества поэта и роли в развитии восточной литературы.

Ключевые слова: Персидская литература, суфизм, рубаи, образ, поэзия, поэт, жанр, анализ, произведение, язык.

Ruboiylarda o'zlashtirib ishlatilgan maqollardan tashqari, oz bo'lsa-da, o'zgarishsiz, shundoqqina, yaxlit holda kiritilgan xalq durdonalari ham uchra turadi (Baqoev M:1975). Ular ruboiyning mazmuniga singib ketishi bilan birga, uning ohangiga muvofiq bir uyg'unlik hosil qilgan:

انجا که سخن ز بت پرستی گویند
من از قد راستت چرا می نرهم
با قد تو وصف سرو بستی گویند
آخر نه که "راستی و رُستی" گویند.

(«Devoni Xusrav Dehlaviy» – O‘zR FASHI, 2220 inv. raqamli qo‘lyozma:45).

Mazmuni:

Butparaštlikdan gap ochilgan on,
(Gap) qadding bilan sarvning bo‘y-baštidan ketar.
Adl qomatingdan nega men ozodlik topmayin,
«Kuch haqiqatdadir» deydilar-ku, axir.

Bu yerda «rost – tik» va «rost – to‘g‘ri so‘z» ma’nolaridan so‘z o‘yini hosil qilingan holda, ma’no «rosti-yu rasti» («to‘g‘ri bo‘lsang, qutulasan») degan xalq naqliga borib taqaladi va bu naql shoir ilgari surayotgan g‘oyaning isboti tarzida keltiriladi.

Istiora. Amir Xusrav ruboiylarining aksar so‘zlari haqiqiy ma’noda emas, majoziy ma’nosi qo‘llanilgan. Ya’ni, ruboiylar istioralarga juda boy: yorga murojaat tarzida – «dili man», «ey guli nasrinam» istioralarini qo‘llaydi. Ko‘rinib turibdiki, ushbu so‘zlar o‘z ma’nosida qo‘llanilayotgani yo‘q, balki ma’shuqa (inson) ma’nosida ishlatilyapti:

باز این دل من ز من کران کرد و برفت
وان خواب که یک شب نشدی دور ز چشم
بر چهره ز خون دل نشان کرد و برفت
از دیده من شب بمیان کرد و بروت

(«Devoni Xusrav» – O‘zR FASHI, 965 inv. raqamli qo‘lyozma:311).

Mazmuni:

Yana bu dilim mendan uzoqlashdi-yu ketdi,
Chehramda dil qonidan nishon qildi-yu ketdi.
Ko‘zimdan biror kecha uzoq ketmagan uyquni –
Ko‘zimdan tunda yo‘q qildi-yu ketdi.

Mubolag‘a. Ma’naviy san’atlar orasida eng ko‘p tarqalgan mubolag‘aning vazifasi ruboiylarda o‘zga-chadir. Hajm jihatdan cheklangan imkoniyatlarga ega bo‘lgan bu janr mubolag‘aga ehtiyojni ko‘proq sezgandek, Amir Xusrav ruboiylarida undan keng foydalangan (4, 6, 7). Ruboiylarda keltirilgan badiiy timsollar harakati yoki holatini bo‘rttirib, kuchaytirib ifodalash hollari, o‘z navbatida, boshqa ko‘pgina badiiy san’atlarni hosil qilish imkonini bergan.

در هجر توام ناله ز اختر بگذشت
در گریه مرا عمر سراسر بگذشت
و افسانه درد من ز دفتر بگذشت
جانا دستی که آیم از سر بگذشت

("Kulliyoti Amiri Xusrav" – O‘zR FASHI, 178 inv. raqamli qo‘lyozma:2276).

Mazmuni:

Sening hajringda nolam yulduzlardan oshib ketdi,
Mening dardim afsonasi dostonidan oshib ketdi.
Mening umrim boshdan oxir yig‘lagan holda
o‘tdi,
Jono, kimga ishim tushsa, haddidan oshib ketdi.

Oshiqning ma’shuqa hajrida chekkan ohu nolalari osmonu falaklarga ko‘tarib tasvirlangan. Bo‘rttirilgan tasvir natijasida oshiqning ichki olami, iztiroblari, dil dardi ta’sirchan, jozibali tasvirlangan. Bular orasida faqat dil dardining o‘zi alohida kitob bo‘larli darajadagina emas, balki undan ortiq. Bunday mubolag‘ali tasvirni o‘qigan kitobxon bularni ibtidoiy ma’nosida emas, oshiqdagi kechinmalarning haddi a’losini ifodalovchi badiiy tasvir sifatida tushunadi.

Ruju’. Oldingi misra yoki baytdagi ifodalangan fikrdan qaytgandek bo‘lib, keyingi misra yoki baytda undan kuchliroq ifoda keltirish yo‘li bilan hosil qilingan badiiy san’atlar ham ko‘p uchraydi. Bunday san’at ko‘proq tashbih va istioralar orqali yaratilgan:

خون رفت بجور تو درون دل من
در آرزوی تو صرف شد مایه عمر
هم از تو دگر نگشت خوی دل من
ای مایه عمر و آرزوی دل من.

(«Kulliyoti Amiri Xusrav» – O‘zR FASHI, 178 inv. raqamli qo‘lyozma:220).

Mazmuni:

Jabringdan yurak-bag‘rim qonga to‘ldi,
Ham sen tufayli dilimning fe’li boshqacha
bo‘lolmadi.
Sening orzuying bilan tugadi umr javhari,
Ey umrim javhari-yu, dilimning orzusi!

Ikkinchi baytni o‘zbekcha qilib, «Ey, dilimning orzusi-yu umrimning maqsad-mazmuni, sening orzuyingda umrimning asosi ado bo‘ldi», deb tushunish kerak. Ammo forsiyda uchinchi misrada o‘zining asl ma’nosida keltirilgan «moyai umr» («umr javhari») so‘zi to‘rtinchi misrada istiora tarzida qayta takrorlanib, ruju’ san’atini hosil qilmoqda.

Takrir. Bu san’atda bir so‘zni takror qo‘llash yo‘li bilan so‘z ma’nosini va uning mohiyatini ta’kidlab ko‘rsatishga erishiladi:

ای روزه ز تو درونها در سوزاست
گویند مرا که عید کی هد بود
هرجند که نور تو جهان افروز است
آن روز که روزه رفت عید آن روز است

(«Devoni Xusrav» – O‘zR FASHI, 965 inv. raqamli qo‘lyozma:390 6.).

Mazmuni:

Ey ro‘za, sen tufayli ichimiz «yonyapti»
Nuring jahonni qanchalar munavvar etsa ham.
Menga deydilar: «Hayit qachon bo‘ladi?»
Ro‘za tugagan kuni, hayit bo‘lgan kun.

Bu ruboiyda «on ro‘z» (o‘sha kun) so‘zini bir misrada ikkinchi marta takror qo‘llash orqali takrir san‘ati hosil qilingan. Ushbu misolda iyhom san‘ati ham mavjud. Birinchi ma’nosi: «ro‘za tugagan kuni hayit boshlanadi». Ikkinchi ma’nosi: «qayerdagi ro‘za bo‘lmasa, o‘sha yerda hayit deyaver». Bu yerda «ro‘za biraft» iborasi ikki ma’noda kelib, «ro‘za tugasa» va «ro‘za bo‘lmasa» ma’nolarini anglatadi.

Tamsil. Ilgari surilayotgan fikr-g‘oyani shubha qoldirmaydigan darajada dalillash uchun hayotiy bir xulosani misol keltirish hollari mumtoz she‘riyatimizning ko‘rki bo‘lib kelgan va tamsil san‘ati degan nom olgan. Bunga Amir Xusrav ruboiylari orasida ham ko‘plab misollar topishimiz mumkin:

چون آن بت دلخواه سخن می گوید
افتاده دلم در زنجش می نالد
لعلش همه با ماه سخن میگوید
گوی که از چاه سخن میگوید

(«Devoni Xusrav Dehlaviy» – O‘zR FASHI, 2220 inv. raqamli qo‘lyozma:464).

Mazmuni:

O‘shal ko‘ngilga yoqimli sanam so‘z so‘zlaganda,
La‘li (labi) oy bilan so‘zlashadi.
Engak (chuqur)iga tushgan dilim nola qiladi–
Go‘yo quduqdan turib so‘zlar so‘zlaydi.

Bu ruboiyda but (sanam), la‘l (lab), oy (chehra) – istiora; dilning nolasi – tashxis. Qolaversa, sharq she‘riyatida mahbubaning zanaxi (baqbaqa chuqurchasi) oshiq uchun zindonga tashbih qilinadi. Dilning nolasini quduqqa (o‘sha zanah chuqurchasiga) tushib ketgan kishining ovozigga qiyoslanishi tamsil san‘atini hosil qilgan.

MUHOKAMA

Ruboiylarda qo‘llanilgan uslublar oddiydan murakkabga qarab taraqqiy etib boradi. Ayrim o‘rinlarda bu badiiyatda murakkablik hosil qiladi.

Tansiq as-sifot. Tasvirlanayotgan shaxs yoki narsaga xos bir nechta belgining ketma-ket ulanib kelishi badiiy tasvir obyektni atroflicha, bir necha

jihatlar bilan gavdalandirishga imkon yaratadi. Bunday badiiy ifoda, odatda, lirik qahramonning sifati yoki harakatining sifati (ravish) bo‘lishi mumkin. Misollar:

ساعده که ز سیم دارد آن حورسفات
بین آن کف دست و پشت دست روشن
شیرین و سبید و صافی آمد چو نبات
گوی که کفی آمده است بر آب حیات

(«Kulliyoti Amiri Xusrav» – O‘zR FASHI, 178 inv. raqamli qo‘lyozma:2096).

Mazmuni:

Bilaklari kumush kabi, ul hur sifat,
Shirinu oppog‘u tozadir go‘yo novvot.
Qo‘lining kafti-yu orti munavvarligiga qara,
Go‘yo bir hovuch obi hayot ustidagi ko‘pikdek.

Bu o‘rinda ma‘shuqaning sifatlaridan tansiq as-sifot san‘ati hosil qilingan bo‘lsa, quyidagi misralarda uning harakatlari sifati jam bo‘lib kelgan:

در سلك بتان ديگران دُر خوشاب
می رفت خرامان وخوش و مست و خراب

(«Kulliyoti Amiri Xusrav» – O‘zR FASHI, 178 inv. raqamli qo‘lyozma:217).

Mazmuni:

«Boshqa sanamlar safida u o‘z go‘zalligi bilan shodadagi qimmatbaho durdek alohida ajralib,
Sollanib, go‘zalu mastu sarxush holda ketib borar edi».

Quyidagi sifatlar ketma-ketligi hatto bir paytning o‘zida ikki misrani qamrab oladi. Qizig‘i shundaki, bu sifatarni ma‘shuqa aytadi, oshiq bu gaplardan takror foydalanib, ma‘shuqaning o‘ziga qaytaradi:

دل در سر سودای تو کردم تن هم
گفتی که وفا نداری و بد عهدی
بر حکم تو سر نهادم و گردن هم
ای ظالم و گبر و نامسلمان من هم

(«Devoni Xusrav Dehlaviy» – O‘zR FASHI, 7070 inv. raqamli qo‘lyozma:315).

Mazmuni:

Sening savdoyingga dilim fido, tanim ham,
Hukmingga boshim fido, gardanim ham.
Deding: «Bevafosan, ahdi yolg‘onsan,
Zolimsan, otashparaştan, nomusulmonsan»,
(dedim) men ham.

Bu ruboiyda fikrning ifodasida benihoya ixchamlikka erishilgan. Ruboiyda misralar soni cheklangan bo‘lsa-da, shoir shu hajm doirasida ham

ko'p yangiliklar yaratish imkoniyati mavjud ekanini namoyish etdi.

Tashbih. Tashbih eng qadimiy va ko'p tarqalgan badiiy tasvir vositasi hisoblanadi. Xilma-xil ko'rinishlarga ega bo'lgan tashbih san'atini har bir shoir she'rlarida bo'lganidek, Amir Xusrav ruboiylarida ham turli xil ko'rinishlarini ko'plab uchratishimiz mumkin:

بلبل به سحر چون غزل انگیزان شد
از بس که نسیم صبح خوش خوش بوزید
گلرا بسوی شاخ دل آویزان شد
نرگس بغنودن افتاد و خزان شد

(«Kulliyoti Amiri Xusrav» – O'zR FASHI, 178 inv. raqamli qo'lyozma:391).

Mazmuni:

Tong chog'ida g'azal to'qigan bulbul
Gul shoxiga osilgan yurakka o'xshaydi.
Subh nasimi yoqimli esgani uchun
Nargis unga mahliyo bo'lib, xazondek to'kildi.

Bu xildagi yangi tashbihlar Amir Xusravning ilk ruboiylarida ham mavjud:

هر موی که بزلف سیاه آن صنم است
چون تیری بدان راست دلش را زیارک
صد بیضهءانبرین در آن موی ضم است
چون خربوزه دنداناش درون شکم است.

(«Devoni Xusrav» – O'zR FASHI, 965 inv. raqamli qo'lyozma:446).

Qovun urug'ini tishga o'xshatilishi ham, o'ziga xos tashbihdir. Shoir tashbih tanlashda uning antiqaligiga alohida e'tibor bilan qaragan.

Tashxis. Insondan boshqa, jonli va jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini ko'chirib, hosil qilingan badiiy san'atlar shoir ruboiylarida juda ko'p uchraydi. Bunda tashxis, ba'zan, intoq, nido san'atlari bilan birga kelish hollari ko'p kuzatiladi. Shoir ijodiy maqsadini amalga oshirishda narsa, tushuncha va hodisalardan unumli foydalangani uchun uning ruboiylarida intoq san'atining hosil bo'lish hollarini ko'plab kuzatish mumkin. Quyidagi ruboiyda Oy insondagi mahliyo bo'lish va kaklik esa taqlid qilish xususiyatini kasb etadi:

چان بنده شود خنده و گفتار ترا
دانی که بکوه گشتن کوکبان چیست؟
ماهی گذرد شبی گرفتار ترا
تکرار همیکند رفتار ترا

(«Devoni Xusrav» – O'zR FASHI, 965 inv. raqamli qo'lyozma:316).

Mazmuni:

Jon sening so'zlashing va tabassumingga qul bo'lsin,

Oy tunda senga mahliyo bo'lib o'tadi.

Kakliklarning tog'da kezishining nima ekanini bilasanmi?

U sening raftoringga taqlid qiladi.

Quyidagi misolda tashxis intoq san'ati bilan birgalikda kelgani holati kuzatiladi. Unda gul o'zining jafokash, hamdam va hamnafasi borligidan inson kabi mamnuniyat hissi bilan tasvirlanadi. U go'yo insonlardek, boshqalarning o'zi haqidagi noto'g'ri fikrlaridan hijolat chekadi:

گل گفت: «اگرچه خار بستر دارم
رو شسته همی زیم در سایهء ابر
همدست جفای خویش بر سر دارم
بندارد هر کس که مگر زر دارم»

(«Devoni Xusrav Dehlaviy» – O'zR FASHI, 2220 inv. raqamli qo'lyozma:475).

Mazmuni:

Gul dermish: «Garchi to'shagim tikandan bo'lsa-da,

Boshimda jafoyim hamdami bordir.

Yuz yuvib yashayman bulut ostida,

Hamma meni zarga boy deb o'ylaydi».

Shoir bu xilda, ya'ni, gul, hajr, g'am, g'uncha, uzum kabi jonli-jonsiz narsa va tushunchalarga insonga xos xususiyatlarni taqib, anchagina she'rlar yozgan. Ularga insonning gapirish, mast bo'lish, yig'lash, tamosho qilish xususiyatlari ko'chirib o'tkazilgan. Ammo, shu bilan birga, tasvir obyektiining she'rda ilgari surilgan g'oya bilan muvofiq keluvchi xususiyatlari saqlab qolingan.

Husni ta'lil. Tasvirlanayotgan biron hodisaga shoirona go'zal bir sabab ko'rsatish yo'li bilan hosil qilinadigan bu badiiy san'at namunolari ham Amir Xusrav ruboiylarida ko'p uchraydi. Quyida shoir shunday bir timsoliy ifoda yaratgan:

اینک دل من بیتو در هم اینست
غم نیست که جان رود ز نادیدن تو
بنمای لب و بگو که مرحم این است
نادیده ترا همی رود غم این است

(«Devoni Xusrav» – O'zR FASHI, 965 inv. raqamli qo'lyozma:446).

Mazmuni:

Endi dilim sensiz qoldi, yomoni shu,
Labingni ko'rsatu ayt, marhami shu.
Seni ko'rmaslikdan jon chiqsa, g'am yo'q,
G'am shundaki, u seni ko'rmayin ketadi.

Bu o'rinda ikkinchi baytning birinchi misrasidagi «g'am yo'q»ligiga zid mazmunda g'am hosil bo'lib qolgani ikkinchi misrada o'z ifodasini topgan. Bunga sabab ko'rsatish «yorni ko'rmayin ketgani» orqali yuzaga keltirilmoqda.

NATIJA

Ruboiylarda qo'llanilgan uslublarni tahlil qilib borish natijasida muallifning mahoratini yanada aniqroq anglab boramiz. Sabab ko'rsatish san'atining quyidagi namunasida «yorning ixtiyorini qo'lga olish»ni maqsad qilib, o'rniga «o'z ixtiyoridan ajrab qolish» sababini mahbubaning «orazini ko'rish» qilib ko'rsatilgan:

دی ز آمدن تو جانم از دست بشد
از دست تو چون عنان تو بگرفتم
دل نیز همان زمانم از دست بشد
رویت دیدم عنانم از دست بشد

(«Devoni Xusrav Dehlaviy» – O'zR FASHI, 11272-I inv. raqamli qo'lyozma:318).

Mazmuni:

Kecha kelganing ko'rib, jonimdan ayrildim,
O'sha zahotiyoq dilimdan ham ayrildim.
Qo'lingdan ixtiyorini olmoqchi bo'ldim,
Orazing ko'rdim-u ixtiyorimdan ayrildim.

Shoir ruboiylarida husni ta'lil san'ati hayotiy va tabiiy hodisalarga asoslangan holda hosil qilinadi.

Tajnis. She'riyatda shaklan bir xil yoki bir-biriga yaqin ikki so'z keltirilib, fikrni ta'sirchan ifodalash san'ati, ayniqsa, ruboiylar badiiyatini kuchaytiradi:

گفتی که فلان ز ما چو تنها ماند
زین گونه که خون دل روانست از چشم
شاید که دلش بجای خود را ماند
خود گو که دل چگونه بر جا ماند

(«Kulliyoti Amiri Xusrav» – O'zR FASHI, 178 inv. raqamli qo'lyozma:214a).

Mazmuni:

Deding: «Falonchi bizsiz yolg'iz qolganida,
Ko'ngli xotirjamligi uni tark etadiganga o'xshaydi.
Dil qoni ko'zlardan oqqani kabi,
O'zing ayt-chi, ko'ngli qanday qilib o'rniga tushsin?!

Bu yerda «monad» so'zi birinchi misrada – yolg'iz qolsa; ikkinchi misrada – tark etsa, to'rtinchi misrada – «qo'ysin» ma'nolarida kelyapti. Bu yerda «monad» so'zi – tajnisi tomni hosil qilmoqda.

Iyhom. Ikki xil talqin qilish mumkin bo'lgan misralar shaklida yaratilgan ruboiylarga iyhom san'ati asos bo'lgan. Bu san'atni hosil qilish shoirdan alohida mahorat talab qiladi. Bunday she'rlar atayin ikki xil ma'no yukini ko'tara oladigan qilib yaratiladi. Quyidagi misolga diqqat qilyaylik:

دی دلیر من میان باران میرفت
در آب روان چو مردم دیده من
خوش بوی تراز باد بهاران میرفت
تر می شد و در میان باران میرفت.

(«Devoni Xusrav» – O'zR FASHI, 9677 inv. raqamli qo'lyozma:403).

Mazmuni:

Kecha dilbarim yomg'irda ketib borardi,
Bahor nafasidan ham xushbo'yroq bo'lib borardi.
Oqar suvda, go'yo ko'zimning qorasidek,
Ho'l bo'lib, yomg'ir oralab borardi.

Yomg'irda ketib borayotgan go'zalga intiqib termilib turgan oshiq manzarasini ko'z oldingizga keltiring. Uchinchi va to'rtinchi misra «Oqar suvda (sharros yomg'irda) ko'zimning qarosi (qorachig'i) ho'l bo'lib, yomg'ir orasida qolib ketdi» ma'nosini bildirsa, boshqacha talqinda, «Oqar suvda (ko'z yoshida), ko'zimning qorasida (ya'ni, ko'z qorachig'idagi tasvir holida) yosh qalqigan ko'zda ho'l bo'lib, yosh yomg'iri oralab ketib borardi», degan fikr ifodalangan.

Ba'zida yaratilgan oddiy bir manzarada so'zlarga mumtoz adabiyotdagi adabiy-badiiy an'analarga ko'ra ma'no berilsa, iyhom san'atini payqab olish mumkin:

شد مجلس دوستان بصد زیبای
گر غنچه کم سخن نمیگوید هیچ
برداشت پیاله نرگس از رعنی
ای خال بروی او چه بر میهای

(«Devoni Xusrav Dehlaviy» – O'zR FASHI, 11272-I inv. raqamli qo'lyozma: 317a).

Mazmuni:

Do'stlar majlisi yuzlab go'zallar bilan o'tadi,
Nargis ra'nolikdan piyola ko'tardi.
Gar kamgap g'uncha sukut saqlasa,
Ey xol, uning yuzidan nima istaysan?

Do'stlar majlis qurgan. Ular kimlar? Nargis, g'uncha, xol. Buni, shunchaki, tashxis san'atiga yo'yish ham mumkin. Ammo, bu yerda majlis davrasi – go'zal

qiz chehrasi, do'stlar esa, chehra a'zolari – ko'z, lab va xol – (nargis, g'uncha, xol). Ularning har biri o'ziga xos xususiyatlari bilan namoyon bo'lgan: ko'zlar mastona, lablar jim, xol esa malomatda. Oshiq bu «majlis»da chehrani xoldan ham rashk etadi. Bunday talqinlar va iyhom lafziy san'atini payqash ham ma'lum tayyorgarlikni taqozo etadi, albatta. Amir Xusrav ruboiylari orasida ulardan biz payqaganimizning o'zi anchagina borligi shoir ijodi bu borada xalafli uchun mahorat maktabi bo'lib kelganini bildiradi.

Tanosub. Ikki xil guruhga xos tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar xilma-xilligi she'riy san'atlar rang-barangligiga xizmat qiladi. Quyidagi ruboiyning birinchi misrasida «fitna» bilan «xayoling», ikkinchi misrasida «xunoba» bilan «xoling», munosabatga kirishmoqda:

جانم همه فتنه از خیالت دارد
مارا غم دیده نیست از گریه و لیک
چشمم همه خونابه ز خالت دارد
بر ما حق دیدن جمالت دارد

(«Kulliyoti Amiri Xusrav» – O'ZR FASHI, 178 inv. raqamli qo'lyozma:229).

Mazmuni:

Jonim, hamma fitna xayolingdandir,
Ko'zimning xunobasi xolingdandir,
Biz ko'zimizga qayg'urmaymiz yig'layapti deb,
Ammo, jamoling ko'rishga bizning haqqimiz bor.

Tanosub Amir Xusrav ruboiylarida husni ta'lil, jam, taqsim, tamsil, tashbih, talmih san'atlari uchun ham zamin bo'lib xizmat qilgan o'rinlar talaygina bor.

Savolu javob. Ruboiylardan bir qismida badiiylikka savol-javob san'atidan foydalangan holda erishilgan. Bu san'at orqali ikki shaxs, ko'pincha, oshiq va ma'shuqa o'rtasida suhbat yuzaga keladi, har ikki tomon aytmoqchi bo'lgan gaplarini aytib olish imkoniyati yaratiladi. Savolu javob odatda bir-ikki misraga jo bo'ladi:

دی میدیدم بیار خود پنهانی
گفتم که نترسی آخر از گریه من
میربخت ز دیده لو لوی عمانی
گفتا که مرا ز گریه میترسانی؟

(«Kulliyoti Amiri Xusrav» – O'ZR FASHI, 178 inv. raqamli qo'lyozma:224).

Mazmuni:

Kecha yorim bilan pinhon ko'rishdim,
Ko'zimdan yum-yum yoshlar to'kardim.
Dedim: «qo'rqma, axir, mening yig'imdan»,
Dedi: «meni yig'lab qo'rqitasanmi?»

Savolu javob san'ati qo'llanilgan ruboiylarda javob juda puxta ishlangan bo'ladi. U mantiqqa asoslangan, juda topib aytilgan fikr bo'lishi shart. Natijada ikki tomonning o'zaro munosabati orqali shoirning ilgari surilayotgan fikrga munosabati ham yaxshi ochiladi. Shoir bunga quyidagicha erishadi:

Ruboiylarda ko'pincha, dastlabki baytda o'quvchi holat, vaziyat yoki manzara bilan qisman tanishtiriladi. Keyingi bayt esa, savol-javob vositasida uni to'ldirib, yaxlit holga keltiradi, asosiy g'oya tarzida ochiladi. Savol-javob san'atidan she'riyatda keng foydalanib kelingan. U boshqa janrlarda asarning ma'lum bir qismini tashkil etsa, ruboiyda to'liq shu usul qamrovida bo'ladigan shakllar uchraydi. Bunday ruboiylar dialogga aylanadi va boshqa hech qanday tushuntirishlarga o'rin qoldirmaydi. Amir Xusrav ruboiylarida bu she'riy san'at juda keng qo'llanilgan:

گفتم: "رخ تو" گفت: "بلا نتوان گفت"
گفتم: "سخنت" گفت که: "چه توان گفتن"
گفتم: "لب تو" گفت: "دوا نتوان گفت"
گفتم: "نیکو" گفت: "که تا بتوان گفت".

(«Kulliyoti Amiri Xusrav» – O'ZR FASHI, 178 inv. raqamli qo'lyozma:206).

Mazmuni:

«Yuzing» desam, «Aytib bo'lmas balo», dedi,
«Labing» desam, «Davo desang ravo», dedi.
«So'zing» desam, «nima ham deyman», dedi,
«Go'zal» desam, «Aytganingcha ayt», dedi.

XULOSA

Demak, Amir Xusrav Dehlaviy badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalangan. Uning mashhur «mo'jiz bayonlik» sohasida erishgan yuksak poetik mahorati ruboiylarda ham namoyon bo'ladi. Shoir ijodida badiiy tasvir vositalari har safar o'ziga xos ixtirolar bilan boyitib borilgan. Ya'ni, shoir har bir muayyan holatda an'anaviy tasvir ketidan kishini hayratga soluvchi shaxsiy tashabbusini ham namoyon qiladi. Buning natijasida she'riy misralar chinakamiga xusravona bo'lib chiqadi. Shuning uchun ham Amir Xusrav ruboiylarida betakror badiiy san'atlar juda ko'p.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aliev G.Yu. (1968). Persoyazichnaya literatura Indii. Moskva.
2. Baqoev M. (1975). Hayot va ejodiyoti Xusravi Dehlaviy. Dushanbe: Donish.

3. Dehlaviy Amir Xusrav. (1975). Osori muntaxab. Dar chor jild, jildi chahorum. Gʻazaliyot, qasoid, muqattaʻot va ruboiyot. Dushanbe.
4. Dexlevi Amir Xisrov. (1965). Chetverostishie. Gʻ Per. VI. Derjavin. – V kn.: «Izbrannoe chetverostishiya persedsko-tadjikskix poetov-klassikov». Dushanbe.
5. Dehlaviy Amir Xusrav. (1960). Muntaxabot. Stalinobod: Nashriyoti davlati Tojikiston.
6. Imomnazarov M. (1978). Iz opita sostavleniya slovaryazika Amira Xosrava //Amir Xosrav Dexlavi. Toshkent.
7. Imomnazarov M. (1975). Opit sostavleniya slovaryazika Amira Xosrava//Amir Xosrav Dexlavi. Toshkent.
8. Kozmoyan A.K. (1981). Rubai v klassicheskoy poezii na fars. Erevan: izd-vo AN Armyanskoy SSR.
9. Munirov Q. (1975). Amir Xisrav Dehlaviy qoʻlyozma asarlari katalogi. Toshkent: Fan, 32 b.
10. NIZAMOVA F. (2019). The history of studying Khusrav Dekhlavi's work //The Light of Islam. Tashkent. №. 2.
11. Ochilov E. (1994). Ruboiy tarjimasida shakl va mazmun birligi: Filol. fanlari nomzodi diss. avtoref. Toshkent.
12. RUSTAMIY S. (2016). «ESASU-L-BELAGA» VE «DİVAN-U LUGAT-İT-TÜRK» ESERLERİNİN DİL BİLİMİ VE BELAGAT BİLİMİYLE İLGİLİ YÖNLERİ //Turkish Studies. Ankara, T. 11. №. 20.
13. Rustamiy S. (2014). ART OF WORD AND ARTISTRY OF ARABIC PROVERBS// The Science Advanced Journal. №. 8. Torrance (USA).
14. Rustamiy S. (2016). Mutabaqa kak leksicheskoye sredstvo vyrazitelnosti // Мир науки, культуры, образования. Горно-Алтайск, №1 (56).
15. Rustamiy S. (2018). TYPOLOGICAL PECULIARTIES OF SCIENCE OF BALAGHAH, RHETORIC AND STYLISTICS //The Light of Islam. Tashkent. №. 1. Shomuhamedov Sh. (2000). Jahonni maftun etgan adabiyot. Toshkent: ToshDSHI, 140 b.
16. Shomuhamedov Sh., Musaev B. (1971). Amir Xusrav Dehlaviy. Toshkent: Fan.
17. "شجره طبقات مشايخ احمد كشميرى". OʻzR FASHI, 1426 raqamli qoʻlyozma.
18. "ديوان خسرو دهلوى" – OʻzR FASHI, 2220 инв. raqamli qoʻlyozma.
19. "ديوان خسرو دهلوى" – OʻzR FASHI, 7070 инв. raqamli qoʻlyozma.
20. "ديوان خسرو" – OʻzR FASHI, 9677 инв. raqamli qoʻlyozma.
21. "ديوانچه خسرو دهلوى" – OʻzR FASHI, 11272-I инв. raqamli qoʻlyozma.
22. "ديوان خسرو" – OʻzR FASHI, 965 inv. raqamli qoʻlyozma.
23. "كلييات امير خسرو" – OʻzR FASHI, 178 inv. raqamli qoʻlyozma.
3. Dehlaviy Amir Xusrav. (1975). Osori muntaxab. Dar chor jild, jildi chahorum. Gʻazaliyot, qasoid, muqattaʻot va ruboiyot. Dushanbe.
4. Dexlevi Amir Xisrov. (1965). Chetverostishie. Gʻ Per. VI. Derjavin. – V kn.: «Izbrannoe chetverostishiya persedsko-tadjikskix poetov-klassikov». Dushanbe.
5. Dehlaviy Amir Xusrav. (1960). Muntaxabot. Stalinabad: Nashriyoti davlati Tojikiston.
6. Imomnazarov M. (1978). Iz opita sostavleniya slovaryazika Amira Xosrava //Amir Xosrav Dexlavi. Tashkent.
7. Imomnazarov M. (1975). Opit sostavleniya slovaryazika Amira Xosrava//Amir Xosrav Dexlavi. Tashkent.
8. Kozmoyan A.K. (1981). Rubai v klassicheskoy poezii na fars. Erevan: izd-vo AN Armyanskoy SSR.
9. Munirov Q. (1975). Amir Xisrav Dehlaviy qoʻlyozma asarlari katalogi. Tashkent: Fan, 32 b.
10. NIZAMOVA F. (2019). The history of studying Khusrav Dekhlavi's work //The Light of Islam. Tashkent. №. 2.
11. Ochilov E. (1994). Ruboiy tarjimasida shakl va mazmun birligi: Filol. fanlari nomzodi diss. avtoref. Toshkent.
12. RUSTAMIY S. (2016). «ESASU-L-BELAGA» VE «DİVAN-U LUGAT-İT-TÜRK» ESERLERİNİN DİL BİLİMİ VE BELAGAT BİLİMİYLE İLGİLİ YÖNLERİ //Turkish Studies. Ankara, T. 11. №. 20.
13. Rustamiy S. (2014). ART OF WORD AND ARTISTRY OF ARABIC PROVERBS// The Science Advanced Journal. №. 8. Torrance (USA).
14. Rustamiy S. (2016). Mutabaqa kak leksicheskoye sredstvo vyrazitelnosti // Мир науки, культуры, образования. Горно-Алтайск, №1 (56).
15. Rustamiy S. (2018). TYPOLOGICAL PECULIARTIES OF SCIENCE OF BALAGHAH, RHETORIC AND STYLISTICS //The Light of Islam. Tashkent. №. 1. Shomuhamedov Sh. (2000). Jahonni maftun etgan adabiyot. Tashkent: ToshDSHI, 140 b.
16. Shomuhamedov Sh., Musaev B. (1971). Amir Xusrav Dehlaviy. Tashkent: Fan.
17. Ahmad kashmiraa. Shajarah tabaqat mashayikh. Manuscript Fund of Orienral Studies Institute, Manuscript No. 1426.
18. "Devoni Xusrav Dehlaviy" – Manuscript Fund of Orienral Studies Institute, Manuscript No. 2220.
19. "Devoni Xusrav Dehlaviy" – Manuscript Fund of Orienral Studies Institute, Manuscript No. 7070.
20. "Devoni Xusrav" – Manuscript Fund of Orienral Studies Institute, Manuscript No. 9677.
21. "Devoni Xusrav Dehlaviy" – Manuscript Fund of Orienral Studies Institute, Manuscript No. 11272-I .
22. "Devoni Xusrav" – Manuscript Fund of Orienral Studies Institute, Manuscript No. 965.
23. "Kulliyoti Amiri Xusrav" – Manuscript Fund of Orienral Studies Institute, Manuscript No. 178.

REFERENCES

1. Aliev G.Yu. (1968). Persoyazichnaya literatura Indii. Moscow.
2. Baqoev M. (1975). Hayot va ejodiyoti Xusravi Dehlaviy. Dushanbe: Donish.

ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ АКАДЕМИЯСИ
ИМОМ МОТУРИДИЙ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИНИНГ
«МОТУРИДИЙЛИК» ЖУРНАЛИ

Мазкур нашр олий ўқув юрглари ва илмий-тадқиқот муассасаларининг профессор-ўқитувчилари, докторантлари,
мустақил тадқиқотчилари, магистрантлари,
талабалари ва кенг китобхонлар оммасига мўлжалланган.

Таҳририят фикри муаллиф нуқтаи назари билан бир хил бўлмаслиги мумкин.
Журналдан кўчирма олинганда манба қайд этилиши шарт.

MOTURIDIYLIK



The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

4/2023

Бош муҳаррир: **Ж.Каримов**

Муҳаррир: **З.Фахриддинов**

Нашр учун масъул: **З.Арслонов**

Чет тилларидаги матнлар муҳаррири: **О.Сотволдиев**

Дизайнер-саҳифаловчи: **З.Ғуломов**

Манзилимиз: Ўзбекистон халқаро ислом академияси Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот маркази,
100011, Тошкент. А.Қодирий кўчаси, 11.

Тел: (+99871) 244-35-47, (+99871) 244-35-36. **Web:** www.maturidijournal.uz

E-mail: info@maturidiy.uz

Нашриётнинг лицензия рақами AI № 0011. 06.05.2019 йил.
Босишга 28.12.2023 йил рухсат этилди. Бичими 60×84 ¼.
Ризограф усулда босилди. Шартли босма табағи 10,2.
Нашр табағи 10,4. Буюртма № 20.
Баҳоси шартнома асосида.

«Ўзбекистон халқаро ислом академияси»
нашриёт-матбаа бирлашмаси босмахонасида чоп этилди.
100011, Тошкент. А.Қодирий кўчаси, 11.



IMOM MOTURIDIY

XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CENTER

المركز الدولي للبحوث العلمية